

CHOLG‘U IJROCHILIGI VA JAMOAVIY IJROCHILIK BILAN BOG‘LIQ TANLOV VA KO‘RIKLAR

<https://doi.org/10.70728/orien.v07.i02.021>

M.M.Ismailova
M.M.Kurbanova
Qo‘qon davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada cholg‘u ijrochiligi hamda jamoaviy ijrochilik sohasida o‘tkaziladigan tanlov va ko‘riklarning ahamiyati, ularning yosh ijrochilar mahoratini oshirishdagi o‘rni, sahnaviy madaniyatni shakllantirishdagi roli hamda milliy musiqa san‘ati rivojiga qo‘shayotgan hissasi tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy va xalqaro miqyosdagi tanlovlar misolida ijodiy jarayonning tashkiliy va estetik jihatlari yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: cholg‘u ijrochiligi, jamoaviy ijrochilik, ansambl, tanlov, ko‘rik, sahna madaniyati, musiqiy ta‘lim, ijro mahorati

COMPETITIONS AND EXAMS RELATED TO INSTRUMENTAL AND GROUP PERFORMANCE

M.M.Ismailova
M.M.Kurbanova
Kokand State University

Abstract: This article analyzes the significance of competitions and review events organized in the fields of instrumental performance and ensemble performance. It examines their role in enhancing young performers’ professional skills, developing stage culture, and contributing to the advancement of national musical art. Furthermore, the organizational and aesthetic aspects of the creative process are explored through examples of national and international competitions.

Keywords: instrumental performance, ensemble performance, ensemble, competition, review, stage culture, music education, performance mastery

Musiqa san‘ati inson ma‘naviy hayotining ajralmas qismi bo‘lib, unda ijrochilik san‘ati alohida o‘rin tutadi. Ijrochilik orqali musiqa asari jonlanadi, kompozitor g‘oyasi tinglovchiga yetib boradi va badiiy-estetik ta‘sir kuchi namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan cholg‘u ijrochiligi nafaqat texnik mahorat, balki chuqur badiiy tafakkur, musiqiy did va sahnaviy madaniyatni ham talab etadi.

Cholg‘u ijrochiligi va jamoaviy ijrochilik (ansambl va orkestr ijrosi) musiqiy madaniyatning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Jamoaviy ijrochilik jarayonida musiqachilar o‘rtasidagi o‘zaro eshitish, uyg‘unlik, temp va dinamika muvozanati, umumiy talqin birligi kabi omillar asosiy mezon sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu sohalarda tashkil etiladigan tanlov va ko‘riklar ijrochilarning kasbiy shakllanishi, sahnaviy tajribasi va ijodiy o‘shida muhim omil vazifasini bajaradi. Tanlov jarayoni ijrochini mas‘uliyatli tayyorgarlikka undaydi, repertuar ustida chuqur ishlashga majbur qiladi hamda sahnada o‘zini erkin tutish ko‘nikmasini shakllantiradi¹.

Bugungi kunda respublika va xalqaro miqyosda o‘tkazilayotgan musiqiy tanlovlar yosh iste‘dodlarni aniqlash, qo‘llab-quvvatlash va milliy san‘atni targ‘ib qilishga xizmat qilmoqda. Jumladan, Sharq taronalari xalqaro musiqa festivali va “Nihol” kabi tanlovlar milliy ijrochilik maktabining rivojlanishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatib kelmoqda². Shu bois cholg‘u ijrochiligi va jamoaviy ijrochilik bilan bog‘liq tanlov hamda ko‘riklarni ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Cholg‘u ijrochiligi tanlovlari odatda yakka ijrochilar o‘rtasida o‘tkaziladi va ular ijrochining individual mahoratini har tomonlama namoyon etishga qaratiladi. Bunday tanlovlar professional ijrochilik maktabining shakllanishida muhim bosqich bo‘lib, ijrochi shaxsining texnik, badiiy va psixologik tayyorgarligini sinovdan o‘tkazadi. Tanlov jarayoni musiqachidan mukammal texnika bilan bir qatorda, chuqur musiqiy tafakkur va mustaqil talqinni ham talab qiladi. Bunday tanlovlarda texnik mahorat, asarni talqin qilish darajasi, ijro aniqligi va intonatsion tozaligi, badiiy ifoda va obrazlilik, sahnaviy madaniyat va ijro etikasi kabi mezonlar asosiy baholash omillari sifatida belgilanadi. Texnik mahorat deganda ijrochining barmoq texnikasi, artikulyatsiya, tezlik va aniqlik darajasi tushuniladi. Asarni talqin qilish esa kompozitor g‘oyasini individual badiiy yondashuv asosida ochib berish bilan belgilanadi. Ijro aniqligi va intonatsion tozalik professional musiqachining asosiy sifatlaridan biri bo‘lib, ayniqsa akademik cholg‘u ijrochiligida muhim mezon hisoblanadi. Sahnaviy madaniyat esa ijrochining tashqi ko‘rinishi, sahnadagi o‘zini tutishi, tinglovchi bilan muloqot o‘rnatish qobiliyati va umumiy estetik saviyasini o‘z ichiga oladi. Zamonaviy tanlov amaliyotida bu omil ijroning ajralmas qismi sifatida qaralmoqda.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda yosh iste‘dodlarni qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Shu jarayonda ta‘sis etilgan “Nihol” mukofoti tanlovi milliy musiqa san‘ati rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur mukofot 1990-yillar oxirida yosh ijodkorlarni aniqlash va rag‘batlantirish maqsadida tashkil etilgan bo‘lib, u O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi

¹ Абдуллин Э.Б., Николаева Е.В. Теория музыкального образования: учебник для студентов высших педагогических учебных заведений. — М.: Академия, 2004. — 336 с.

² Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси. «Шарқ тароналари» халқаро musiqa festivalini tashkil etishi va ўтказиш тўғрисидаги қарор. — Тошкент, 1997

hamkorligida o'tkazib kelinadi³. Tanlovning asosiy maqsadi - professional ijrochilik maktabini rivojlantirish, milliy va zamonaviy musiqiy yo'nalishlarda faoliyat yuritayotgan yosh san'atkorlarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning sahnaviy tajribasini oshirishdan iborat. Tanlov nizomiga ko'ra, unda odatda 18-30 yoshdagi ijrochilar ishtirok etadi. Saralash bosqichlari hududiy tanlovlardan boshlanib, respublika final bosqichi bilan yakunlanadi.

"Nihol" mukofoti akademik xonandalik, estrada ijrochiligi, an'anaviy qo'shiqchilik va cholg'u ijrochiligi kabi turli yo'nalishlarni qamrab oladi. Ayniqsa, cholg'u ijrochiligi nominatsiyasi yosh musiqachilarning texnik mahorati, badiiy talqini va sahnaviy madaniyatini namoyon etishda muhim maydon hisoblanadi. Hakamlar hay'ati tarkibiga tajribali san'at arboblari, professor-o'qituvchilar va musiqashunos olimlar kiritiladi⁴. Mazkur tanlov ko'plab yosh ijrochilarning professional sahnaga kirib kelishida muhim bosqich vazifasini bajargan. "Nihol" mukofoti laureatlari orasidan keyinchalik davlat mukofotlari sovrindorlari, xalqaro tanlovlar g'oliblari va yetakchi ijrochilar yetishib chiqqan. Bu esa tanlovning milliy ijrochilik maktabi taraqqiyotidagi amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi. Shuningdek, tanlov yoshlarning sahnaviy madaniyatini shakllantirish, repertuar tanlash madaniyatini rivojlantirish hamda professional baholash tizimi orqali ijrochilik darajasini aniqlashda muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois "Nihol" mukofoti tanlovi nafaqat ijodiy bellashuv, balki musiqiy ta'lim va ijrochilikni rivojlantirishning samarali mexanizmlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Shuningdek, xalqaro miqyosdagi eng nufuzli tanlovlardan biri - Chaykovskiy nomidagi xalqaro tanlov yosh ijrochilar uchun yuksak professional mezonlarni belgilab beruvchi muhim ijodiy maydon hisoblanadi. Mazkur tanlov tarixida ko'plab dunyoga mashhur pianinochi, skripkachi va vokal ijrochilar yetishib chiqqan. Unda ishtirok etish ijrochining professional darajasini namoyon etish bilan birga, ijodiy raqobat muhitida shakllanishiga va xalqaro sahnaga chiqishiga xizmat qiladi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab xalqaro musiqa tanlovlari professional ijrochilik san'atining muhim institutiga aylandi. Chaykovskiy nomidagi xalqaro tanlov 1958-yilda Moskvada ilk bor o'tkazilgan⁵. Tanlov buyuk rus kompozitori Pyotr Ilyich Chaykovsky nomi bilan atalib, akademik musiqa yo'nalishida eng yuksak professional mezonlarni belgilab beruvchi tanlov sifatida e'tirof etiladi.

Mazkur tanlov dastlab pianino va skripka yo'nalishlarida tashkil etilgan bo'lsa, keyinchalik violonchel va vokal nominatsiyalari ham qo'shildi. Tanlov to'rt yilda bir

³ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси. Ёш ижодкорларни қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисидаги қарор. — Тошкент, 1997

⁴ Абдуллаева Р. Ўзбекистонда музика танловлар тизими ва уларнинг ёшлар тарбиясидаги аҳамияти // Санъатшунослик масалалари. — Тошкент, 2015. — №2. — Б. 45–52.

⁵ Ванечкина И.Н. Международный конкурс имени П.И. Чайковского: история и современность. — М.: Музыка, 2011. — 256 с.

marotaba o'tkazilib, unda dunyoning turli mamlakatlaridan yosh iste'dodli ijrochilar ishtirok etadi. Saralash jarayoni bir necha bosqichdan iborat bo'lib, qatnashchilarning texnik mahorati, musiqiy tafakkuri, badiiy talqini hamda sahnaviy madaniyati yuqori professional darajada baholanadi⁶. Chaykovskiy tanlovi tarixida ko'plab buyuk ijrochilar kashf etilgan. Masalan, 1958-yilgi birinchi tanlov g'olibi, amerikalik pianinochi Van Klipburn xalqaro miqyosda katta shuhrat qozongan. Uning g'alabasi nafaqat musiqiy, balki madaniy-diplomatik ahamiyatga ham ega bo'lgan. Keyingi yillarda ham tanlov ko'plab mashhur pianinochi va skripkachilarning professional faoliyatiga yo'l ochgan. Mazkur tanlovning ahamiyati shundaki, u ijrochilik san'atida yuqori standartlarni belgilaydi. Tanlovda muvaffaqiyat qozongan musiqachi xalqaro konsert sahnalariga yo'llanma oladi, yirik orkestrlar bilan hamkorlik qiladi va nufuzli agentliklar bilan shartnomalar tuzish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bois Chaykovskiy nomidagi xalqaro tanlov professional ijrochilik maktabining shakllanishi va rivojlanishida muhim omil sifatida qaraladi. Umuman olganda, mazkur tanlov ijrochilik san'atining texnik mukammallik, badiiy chuqurlik va sahnaviy yetuklik kabi mezonlarini uyg'un holda namoyon etishga xizmat qiladi. U xalqaro madaniy hamkorlikni mustahkamlash hamda akademik musiqa an'alarini davom ettirishda muhim platforma hisoblanadi. Shu tariqa, cholg'u ijrochiligi tanlovlari ijrochi shaxsining har tomonlama rivojlanishida, kasbiy mezonlarning takomillashuvida va ijrochilik maktablarining rivojida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Jamoaviy ijrochilik tanlovlari ansambl va orkestrlarning uyg'un ijrosi, o'zaro muvofiqligi hamda badiiy yaxlitligini baholashga qaratilgan murakkab ijodiy jarayondir. Ansambl ijrochiligida har bir ishtirokchining individual mahorati umumiy badiiy natijaga xizmat qiladi. Shu bois bunday tanlovlarda musiqiy muloqot, o'zaro eshitish va ijodiy hamkorlik asosiy mezonlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Bu jarayonda ansambl uyg'unligi, dinamik muvozanat, temp barqarorligi, umumiy talqin birligi, sahnaviy intizom kabi jihatlar muhim hisoblanadi. Ansambl uyg'unligi deganda ijrochilarning intonatsion aniqligi, ritmik hamohangligi va umumiy tovush balansi tushuniladi. Dinamik muvozanat orkestr yoki ansambl tarkibidagi cholg'ular o'rtasida ovoz nisbatining to'g'ri taqsimlanishini anglatadi. Temp barqarorligi esa dirijyor yoki yetakchi ijrochi boshchiligida asarning metroritmik yaxlitligini saqlashni talab qiladi. Umumiy talqin birligi ansambl a'zolarining musiqiy fikrlashida yagona konsepsiyaning mavjudligi bilan belgilanadi. Bu esa avvalo repetitsiya jarayonining puxta tashkil etilishi, dirijyorlik madaniyati va ijrochilarning professional tayyorgarligiga bog'liq. Sahnaviy intizom esa tashqi ko'rinish, sahnadagi joylashuv, kirish-chiqish madaniyati hamda ijro jarayonidagi intizomiy holatlarni o'z ichiga oladi.

O'zbek milliy musiqa san'atida maqom ansambllari va xalq cholg'ulari orkestrlarining ko'rik-tanlovlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Sharq taronalari

⁶ Цыпин Г.М. Исполнитель и техника: проблемы интерпретации. — М.: Музыка, 1986. — 192 с.

xalqaro musiqa festivali doirasida turli mamlakatlar jamoalari o'z ijro mahoratini namoyish etib kelmoqda. 1997-yildan buyon muntazam o'tkazib kelinayotgan mazkur festival milliy ijrochilik an'analarini xalqaro maydonga olib chiqish, madaniy almashinuvni kengaytirish va ansambl ijrochiligini rivojlantirishda muhim platforma vazifasini bajaradi⁷. Maxsus musiqa maktablari, san'at kollejlari va oliy ta'lim muassasalari o'rtasida o'tkaziladigan ko'rik-tanlovlar yosh ansambllarning tajriba orttirishida muhim bosqich hisoblanadi. Bunday tanlovlar pedagogik jarayon bilan bevosita bog'liq bo'lib, ular o'quvchilarda mas'uliyat, jamoada ishlash ko'nikmasi va professional sahna tajribasini shakllantiradi. Shu tariqa, jamoaviy ijrochilik tanlovlari nafaqat ijodiy bellashuv shakli, balki musiqiy ta'lim va professional ansambl madaniyatini rivojlantirishning samarali vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Tanlov va ko'riklar nafaqat ijrochilik darajasini aniqlash, balki ta'lim jarayonini rag'batlantirish vositasi hamdir. Ular o'quvchilarda mas'uliyat hissini kuchaytiradi, sahna qo'rquvini kamaytiradi, mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi. repertuar boyishini ta'minlaydi. Jamoaviy ijrochilik tanlovlari esa o'zaro tinglash, hamkorlikda ishlash va musiqiy muloqot madaniyatini shakllantiradi. Ayniqsa, ansambl ijrosida har bir ishtirokchining individual mahorati umumiy natijaga xizmat qiladi.

Hozirgi davrda tanlovlar onlayn platformalar orqali ham tashkil etilmoqda. Bu esa geografik chegaralarni kengaytirib, ko'proq ijrochilarga ishtirok etish imkonini bermoqda. Multimedia texnologiyalari, professional audio-video yozuvlar tanlov baholash tizimiga yangi mezonlarni olib kirdi. Shuningdek, milliy va zamonaviy yo'nalishlarning uyg'unlashuvi repertuar siyosatida ham aks etmoqda. An'anaviy maqom asarlari bilan bir qatorda zamonaviy kompozitorlar asarlari ham tanlov dasturlaridan o'rin olmoqda.

Cholg'u ijrochiligi va jamoaviy ijrochilik bilan bog'liq tanlov hamda ko'riklar musiqiy ta'lim tizimi va san'at rivojining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular ijrochilik san'atining professional mezonlarini shakllantirish, yosh iste'dodlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash, shuningdek, milliy ijrochilik maktabining uzviy davomiyligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Tanlov jarayoni ijrochini texnik mukammallik, badiiy tafakkur va sahnaviy madaniyat uyg'unligiga erishishga undaydi. Jamoaviy ijrochilik tanlovlari esa ansambl va orkestr madaniyatini rivojlantirish, musiqiy muloqot va ijodiy hamkorlik ko'nikmalarini mustahkamlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday tanlovlar orqali yosh musiqachilar jamoada ishlash, umumiy talqin birligiga erishish hamda professional sahna tajribasini orttirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Shuningdek, tanlov va festivallar milliy musiqiy merosni asrab-avaylash, uni keng jamoatchilikka yetkazish hamda xalqaro madaniy almashinuvni rivojlantirishning

⁷ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси. «Шарқ тароналари» халқаро мусиқа фестивалини ташкил этиш ва ўтказиш тўғрисидаги қарор. — Тошкент, 1997

samarali vositasidir. Ular orqali milliy an'analar zamonaviy ijro talqini bilan uyg'unlashib, global madaniy makonda munosib o'rin egallaydi. Kelgusida bunday tanlovlarni ilmiy-metodik asosda yanada takomillashtirish, baholash mezonlarini aniq va shaffof tizim asosida ishlab chiqish, raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan keng foydalanish hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoladi. Ayniqsa, tanlovlar natijalarini tahliliy monitoring qilish va ularning ta'lim jarayoniga integratsiyasini ta'minlash ijrochilik san'ati rivojining barqarorligini ta'minlaydi hamda cholg'u ijrochiligi va jamoaviy ijrochilik bilan bog'liq tanlov hamda ko'riklar zamonaviy musiqiy madaniyat taraqqiyotining muhim omili sifatida o'z ahamiyatini saqlab qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Асафьев Б.В. Музыкальная форма как процесс. - Л.: Музыка, 1971. - 376 с.
2. Холопова В.Н. Теория музыки: мелодика, ритмика, гармония. - М.: Музыка, 2002. - 624 с.
3. Абдуллин Э.Б., Николаева Е.В. Теория музыкального образования: учебник для студентов высших педагогических учебных заведений. - М.: Академия, 2004. - 336 с.
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси. «Шарқ тароналари» халқаро мусиқа фестивалини ташкил этиш ва ўтказиш тўғрисидаги қарор. - Тошкент, 1997
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси. Ёш ижодкорларни қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисидаги қарор. - Тошкент, 1997
6. Абдуллаева Р. Ўзбекистонда мусиқий танловлар тизими ва уларнинг ёшлар тарбиясидаги аҳамияти // Санъатшунослик масалалари. - Тошкент, 2015.
7. Каримова Д. Мустақиллик даврида ёш ижодкорларни қўллаб-қувватлаш сиёсати // Маданият ва санъат. - Тошкент, 2018. - №4. - Б. 12-18.
8. Ванечкина И.Н. Международный конкурс имени П.И. Чайковского: история и современность. - М.: Музыка, 2011. - 256 с.
9. Международный конкурс имени П.И. Чайковского: официальный буклет и регламент. - М.: Дирекция конкурса, 2019. - 120 с.
10. Цыпин Г.М. Исполнитель и техника: проблемы интерпретации. - М.: Музыка, 1986. - 192 с.
11. Schonberg H.C. The Great Pianists. - New York: Simon & Schuster, 1987. - 528 p.
12. Dubal D. The Art of the Piano: Its Performers, Literature, and Recordings. - 3rd ed. - Portland: Amadeus Press, 2004. - 688 p.